



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**No1**  
MAXSUS SON



# BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### **Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

### **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### **Muharrir:**

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr. 91 sahifa.  
2026-yil yanvar*

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjajevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: TAHLIL VA AUDIT .....	10
Urinboev Bexruz Zoir o'g'li, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI .....	15
Jabborov Muhammad Sanjarovich, Djurayeva Dilnoza Davron qizi, Song Jichung	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH OMILLARI VA MAKROIQTISODIY TA'SIRI.....	21
Xoliqulova Ra'no Sherali qizi, Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich	
КУЛЬТУРНЫЙ ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА .....	25
Ахтамов Огабек Улугбек угли, Фахритдинов Амриддин Фазлитдинович, Саидмуродов Жонибек Жахонгирович, Саттарова Зухра Илхомовна	
DAVLATNING YASHIL INVESTITSİYALAR ORQALI IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH SIYOSATI.....	31
Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li, Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI O'SISHIDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING STRATEGIK O'RNI: PREZIDENT MUHOJAJATNOMASI ASOSIDA ILMIY TAHLIL .....	35
Ma'rupov Zahiriddin Feruzovich, Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDAGI BIZNES-SUBYEKTLARINI BAHOLASH: ESG MEZONLARI ASOSIDA BARQARORLIK INDEKSINI ISHLAB CHIQISH VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI .....	39
Po'latov Orzubek Fazliddin o'g'li, Haqnazarova Yulduz Juraqulovna	
ФИНАНСОВЫЕ ИНСТИТУТЫ КАК ФАКТОР МОДЕРНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	43
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
AKSIZ SOLIG'I TUSHUMLARINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET DAROMADLARIDAGI ULUSHI: 2020–2024-YILLAR BO'YICHA IQTISODIY TAHLILI .....	49
Karimov Diyorbek, Abdurashidov Abdusamad	
O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARINING SOLIQ TUSHUMLARI VA FUQAROLARNING SOLIQ INTIZOMIGA TA'SIRI .....	55
Maxkamova Dildora Shavkat qizi, Ergashev Shavkat Maxkamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В МАРКЕТИНГОВЫЕ КОММУНИКАЦИИ КОМПАНИЙ.....	59
Рахимжонов Аброр Марифжанович, Кахрамонов Хуршид Шухратович	
BOZOR IQTISODIYOTIDA UMUMIY TALAB VA UMUMIY TAKLIF .....	66
O'ktamova Shaxruza Abror qizi, Norboyev Odil Abrayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IJTIMOY TARMOQLAR ORQALI MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH USULLARI (O'ZBEKISTONDAGI YIRIK BRENDLAR MISOLIDA).....	70
Axmedova Robiya Rustamovna, Kadirova Sharafat Amonovna	
MINTAQANING INNOVATSION IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYASI .....	76
Rushana Taxirova, F.U.Umarov	
SAMARQAND VILOYATI UCHUN TURIZM MAHSULOTLARINI YARATISH .....	83
Alimardonova D.T., Tursunova G.R.	



# SAMARQAND VILOYATI UCHUN TURIZM MAHSULOTLARINI YARATISH

**Alimardonova D.T.**

SamISI Servis fakulteti talabasi

E-mail: [alimardonovadildora1@gmail.com](mailto:alimardonovadildora1@gmail.com)

Ilmiy rahbar:

**Tursunova G.R.**

SamISI "Turizm" kafedrası dotsenti

ORCID: 0009-0008-6519-4164

E-mail: [tursunovaguli1703@gmail.com](mailto:tursunovaguli1703@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Samarqand viloyatining turistik salohiyatini baholash, mavjud turistik resurslarni o'rganish hamda zamonaviy, raqobatbardosh va jozibador turizm mahsulotlarini yaratish imkoniyatlari tahlil qilingan. Samarqand viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning dolzarb masalalari, istiqbollari hamda turizm mahsulotlarini shakllantirish shart-sharoitlariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada turizm mahsulotining asosiy komponentlari — transport, mehmonxona xo'jaligi, ovqatlanirish, qo'shimcha xizmatlar va infratuzilmaning rivojlanish darajasi tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy turizm sanoatida innovatsion mahsulotlarning ahamiyati, raqamli texnologiyalar, virtual turlar va interaktiv tajribalar asosida yaratilayotgan yangi turizm mahsulotlari ilmiy jihatdan o'rganib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm mahsulotlari, Samarqand viloyati, madaniy meros, turizm qishlog'i, ekologik turizm, turizm infratuzilmasi, turistik marshrut.

**Abstract:** This article analyzes the tourist potential of the Samarkand region, examines available tourism resources, and explores the possibilities of creating modern, competitive, and attractive tourism products. Particular attention is paid to the key issues, prospects, and conditions for the development of tourism products in the Samarkand region. The study analyzes the development level of the main components of a tourism product — transportation, accommodation, catering services, additional services, and tourism infrastructure. Furthermore, the importance of innovative tourism products in the modern tourism industry is examined, including new tourism products developed through digital technologies, virtual tours, and interactive experiences.

**Key words:** tourism products, Samarkand region, cultural heritage, tourism village, ecological tourism, tourism infrastructure, tourist route.

**Аннотация:** В данной статье проводится анализ туристического потенциала Самаркандской области, изучаются имеющиеся туристические ресурсы, а также рассматриваются возможности формирования современного, конкурентоспособного и привлекательного туристического продукта. Особое внимание уделено актуальным проблемам и перспективам развития туристической отрасли, а также условиям формирования туристических продуктов в Самаркандской области. В статье проанализирован уровень развития основных компонентов туристического продукта — транспортной системы, гостиничного хозяйства, общественного питания, дополнительных услуг и инфраструктуры. Кроме того, исследуется роль инновационных туристических продуктов в современной туристической индустрии, в том числе продуктов, созданных на основе цифровых технологий, виртуальных туров и интерактивного опыта.

**Ключевые слова:** туристические продукты, Самаркандская область, культурное наследие, туристическая деревня, экологический туризм, туристическая инфраструктура, туристический маршрут.

## KIRISH

Samarqand viloyati ko'plab tarixiy obidalari, betakror me'morchilik namunalari va ko'ngilochar maskanlarga boy hudud hisoblanadi. Ushbu holat Samarqand viloyati uchun yangi turistik mahsulotlarni yaratish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifat darajasini yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Samarqand viloyatining mavjud tabiiy, madaniy va infratuzilma resurslarini o'rganish hamda ular asosida hududga xos sanoat va innovatsion turizm ta'minotini joriy etish



yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat. Mazkur maqsad doirasida viloyatda turizm xizmatlarini standart darajada amalga oshirish, turistlarga qulay va tezkor xizmat ko'rsatish hamda innovatsion yondashuvlardan foydalanish taklif etiladi. Shu bilan birga, turistik mahsulot tarkibida asosiy xizmatlar ulushi — 50 %, qo'shimcha xizmatlar — 30 % va tovarlar — 20 % ni tashkil etishi nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rnini va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli<sup>1</sup> Farmonida mamlakatda turizm sohasini iqtisodiyotning muhim strategik tarmog'i sifatida yanada rivojlantirish, sayyohlar oqimini keskin oshirish, yangi turizm obyektlarini tashkil etish, sohadagi tadbirkorlarni qo'shimcha qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda mavjud ish o'rinlarini saqlab qolish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda "turistik mahsulot" tushunchasi keng tarqalgan atamalardan biri bo'lib, u nafaqat iqtisodiyotda, balki turizm jarayonlarida ham faol joriy etilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, xorijiy hamda respublikamizdagi ko'plab olimlar va tadqiqotchilar tomonidan mazkur tushunchaga turlicha ta'riflar berilgan.

Jumladan, E.A. Jandjugazova turistik mahsulotni "o'ziga xos turistik va kurort tovarlari shaklida namoyon bo'ladigan, rekreatsion ta'sirga ega bo'lgan iste'mol qadriyatlar majmui" sifatida belgilaydi<sup>2</sup>.

E.N. Ilinaning fikricha, "turistik mahsulot — bu turistga oldindan to'lov asosida sotiladigan xizmatlar hamda xizmatlarning nomoddiy tovarlar majmuasi bo'lib, keyinchalik iste'mol jarayonida zarurat tug'ilganda qo'shimcha xizmatlarni kafolatlangan holda taqdim etishni nazarda tutadi"<sup>3</sup>.

A.P. Durovich esa "turistik mahsulot turistik xizmatlar shaklida namoyon bo'ladigan ijtimoiy mehnat natijasi bo'lib, turistlarning muayyan ehtiyojlarini qondirish hamda ular tomonidan to'lov amalga oshirilishi sharti bilan belgilanadi"<sup>4</sup>, deb talqin qiladi.


## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishi davomida qiyosiy tahlil va tizimli qiyoslash, ilmiy-abstrakt fikrlash hamda mantiqiy yondashuv kabi ilmiy usullardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga eng katta ta'sir ko'rsatadigan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Turli davlatlarning turistik va rekreatsion salohiyati juda murakkab tushuncha bo'lib, uni bir ma'noda talqin qilish va baholash qiyin. Hozirgi vaqtda jahon miqyosida turizmning roli doimiy ravishda o'sib bormoqda. Bu holat turizmning insonlar hayotidagi ahamiyati, shuningdek, butun mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sirining kuchayishi bilan izohlanadi.

Turizm sohasidagi xizmatlarning aksariyati eng kam yo'qotishlar bilan amalga oshiriladi va u jahon iqtisodiyotiga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu jihatlar turizmning o'ziga xos xususiyatlari hisoblanadi. Turizm sektori faoliyati qo'shilgan qiymatning yuqori ko'rsatkichlariga erishish imkonini beradi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida turizm kompaniyalari yangi xizmatlar va mahsulotlarni ishlab chiqishning muhimligi hamda zarurligini tobora chuqur anglab yetmoqda(1-rasm).



1-rasm. 2024-yil uchun Samarqand bo'yicha turistik safarlar soni

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rnini va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-7531559>

2 Кусков А.С., Джаладян Ю.А. Основы туризма: учебник - 4-е изд., перераб.-М.: КНОРУС, 2015.-250с.


3 Илина Ие.Н. Туроперейтинг: организация деятельности: учебник. - 2-е изд., перераб. и доп.-М.: Финанси и статистика, 2014.-44 с.

4 Дурович А.П. Организация туризма. Учебное пособие. - СПб.: Питер, 2012.-55 с.



2024-yilda viloyatga turistik maqsadlarda kelgan xorijiy davlatlar fuqarolarining umumiy safarlari soni 53,2 ming tani tashkil etgan bo'lib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 20,3 % ga kamaygan.

2024-yilda Samarqand viloyatida 144 ta turistik firma va tashkilotlar faoliyat yuritib, ular tomonidan 61 679 kishiga xizmat ko'rsatilgan hamda jami 71 076 ta sayyohlik yo'llanmalari sotilgan. 2023-yilga nisbatan asosiy ko'rsatkichlarda o'sish kuzatilgan: turistik firma va tashkilotlar soni 8 taga, ya'ni 5,6 % ga oshgan(2-rasm) (1-jadval).




2-rasm. 2024-yil uchun Samarqand bo'yicha Turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

1-jadval. Turistik firma va tashkilotlar faoliyati ko'rsatkichlarini hududlar kesimida taqsimlanishi

	Turistik firma va tashkilotlar soni		Xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni		Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari soni	
	Jami (birlik)	Jamiga nisbatan % dagi ulushi	Jami (kishiga)	Jamiga nisbatan %dagi ulushi	Jami (birlik)	Jamiga nisbatan % dagi ulushi
Samarqand viloyati	144	100,0	61 679	100,0	71 076	100,0
Samarqand sh	134	93,0	53 268	86,3	63 785	89,8
Kattaqo'rg'on sh	-	-	-	-	-	-
Tumanlar						
Oqdaryo	3	2,0	1 264	2,1	1 776	2,5
Bulung'ur	-	-	-	-	-	-
Jomboy	-	-	-	-	-	-
Ishtixon	-	-	-	-	-	-
Kattaqo'rg'on	-	-	-	-	-	-
Qo'shrabot	3	2,0	327	0,5	50	0,08
Narpay	-	-	-	-	-	-
Nurobod	1	0,8	2	0,003	2	0,003
Payariq	1	0,8	10	0,01	130	0,2
Pastdarg'om	-	-	-	-	-	-
Paxtachi	-	-	-	-	-	-
Samarqand	2	1,4	6 808	11,1	5 333	7,5
Toyloq	-	-	-	-	-	-
Urgut	-	-	-	-	-	-

2024-yilda viloyat hududida 361 ta mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari obyektlari faoliyat yuritgan. Ularda 6 603 ta nomer (xona), 13 827 ta joy mavjud bo'lib, jami 428 451 kishi joylashtirilgan. 2023-yilga nisbatan mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari obyektlari soni 114 taga, ya'ni 68,4 % ga, nomer fondi 471 taga (47,4 % ga), joylar soni 989 taga (7,2 % ga), joylashtirilgan shaxslar soni esa 82,8 ming kishiga, ya'ni 80,6 % ga oshgan<sup>5</sup> (3-rasm)(2-jadval) .

5 <https://samstat.uz>




3-rasm. 2024-yil uchun mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2-jadval. Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari faoliyati ko'rsatkichlarining hududlar kesimida taqsimlanishi (2024-yil)

Hududlar	Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari obyektlari soni (birlik)	Joylashtirilgan shaxslar soni (kishi)	Nomerlar (xonalar) soni (birlik)	Joylar soni (birlik)
Samarqand viloyati	361	428 451	6 603	13 827
Samarqand sh.	301	339 675	4 862	10 310
Kattaqo'rg'on sh.	5	1 682	65	127
Oqdaryo	7	10	19	19
Bulung'ur	–	–	–	–
Jomboy	–	–	–	–
Ishtixon	–	–	–	–
Kattaqo'rg'on	3	1 334	40	97
Qo'shrabot	2	155	15	40
Narpay	2	1 728	15	33
Nurobod	8	3 305	98	266
Payariq	7	14	105	163
Pastdarg'om	–	–	–	–
Paxtachi	25	79 971	1 374	2 752

Samarqand viloyatida asosiy xizmatlar bo'yicha olib borilgan statistik tahlilda ovqatlantirish xizmatlaridan foydalanish ko'rsatkichlari 2023–2024-yillardagi statistika boshqarmasi ma'lumotlarida keltirilmagan. Shu sababli 2025-yilda ovqatlantirish xizmatlaridan foydalanish ko'rsatkichlari asosida mualliflar tomonidan tadqiqotlar olib borildi.

Samarqand viloyatining diqqatga sazovor joylariga tashrif buyurgan turistlar o'rtasida 2025-yilning 10–12-may kunlari o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, unda jami 237 nafar respondent ishtirok etgan bo'lib, shulardan 29 nafari mahalliy, 65 nafari ichki va 143 nafari xorijiy turistlarni tashkil etadi(4-rasm).



4-rasm. Turistlarning hududiy joylashuvi bo'yicha tahlili<sup>6</sup>

Samarqand viloyati turistik resurslarga boyligi bilan ajralib turadi. Ushbu resurslar madaniy-tarixiy obidalar, tabiiy go'zalliklar, milliy hunarmandchilik, gastronomiya hamda mehmonxonalar va transport infratuzilmasi bilan yetarli darajada ta'minlangan. Mazkur resurslarning to'liq salohiyatidan foydalanish va ularni jahon bozorida to'g'ri taqdim etish muhim vazifa hisoblanadi. Mavjud infratuzilmani takomillashtirish va yangi xizmat turlarini joriy etish, shuningdek, Samarqand imidjini shakllantirish orqali hududning jozibadorligini yanada oshirish mumkin.

So'rovnomada keltirilgan "Samarqandga tashrifingiz davomida siz foydalangan turizm mahsulotidagi asosiy va qo'shimcha xizmatlarga 5 ballik baholash tizimi bo'yicha nechchi baho bera olasiz?" degan savolga xorijiy, ichki va mahalliy turistlarning javoblari quyidagicha tahlil qilindi(5-rasm).



5-rasm. "Samarqandga tashrifingiz davomida siz foydalangan turmahsulotdagi asosiy va qo'shimcha xizmatlarga 5 ballik baho bo'yicha Siz nechchi baho bera olasiz?" degan savolning tahlili<sup>7</sup>.

Yangi turizm mahsulotlarini ishlab chiqish yo'nalishlari Samarqandga kelayotgan sayyohlarning demografik tarkibini kengaytirishga, ularning hududda qolish muddatini uzaytirishga hamda viloyatning umumiy turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Samarqandning asosiy jozibadorligi uning boy madaniy-tarixiy merosi bilan belgilanadi. Samarqand viloyatida jami 1 607 ta moddiy madaniy meros obyektlari ro'yxatga olingan bo'lib, shundan 973 tasi arxeologiya, 562 tasi arxitektura, 36 tasi monumental san'at asarlari va 34 tasi diqqatga

6 Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan

7 Mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan



sazovor joylardan iborat<sup>8</sup>. Ushbu obyektlarning 1 011 tasi respublika, 596 tasi esa mahalliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mazkur ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Samarqand viloyati ko'plab arxeologik obyektlarga ega bo'lib, ularning aksariyatida sayyohlarni qabul qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Samarqandga tashrif buyuruvchi sayyohlarning katta qismini aynan arxeologik obidalar va madaniy meros obyektlari qiziqtiradi. Bu esa mazkur obyektlar doirasida esdalik sovg'alarini targ'ib qilish va sotish imkoniyatini yaratadi. Bunday sovg'alarni milliy hunarmandchilik mahsulotlari orqali ta'minlash mumkin. Shu bois, Samarqand brendi asosida ishlab chiqarilgan turli xil suvenirlar, tovar va mahsulotlarni turizm bozorida taqdim etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq faqat mashhur obidalarni tomosha qilish bilan cheklanib qolmasdan, rekreatsion turizm, ekologik turizm, gastronomik turizm, ekstremal turizm hamda virtual turlar asosida, milliylikdan uzoqlashmagan holda zamonaviy va noodatiy turizm mahsulotlarini ishlab chiqish zarur. Bu yondashuv sayyohlarning hududni chuqurroq anglashiga va ularning oddiy tomoshabin emas, balki faol ishtirokchiga aylanishiga xizmat qiladi.

Samarqand viloyatida sayohat maskanlarining birmuncha tarqoq joylashgani sayyohlardan uzoqroq masofalarni bosib o'tishni talab qiladi. Bir tomondan bu holat muammoli ko'rinsa-da, ikkinchi tomondan sayyohlarga Samarqandning boshqa hududlarini ham ko'rish imkonini beradi. Hozirgi kunda viloyatda 171 ta yangi turistik marshrutlar qatnovi yo'lga qo'yilgan bo'lib, ushbu transport xizmatlaridan sayyohlar va mahalliy aholi faol foydalanmoqda. Bu esa barcha uchun qulaylik yaratishga xizmat qilmoqda.

Ayni vaqtda Samarqand viloyatining tumanlarida turizmni rivojlantirish yo'nalishida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Turistik-rekreatsion xizmatlarni rivojlantirishda fuqarolarning tashrif buyurish maqsadlari bo'yicha olib borilgan tahlillar Samarqand viloyatiga dam olish va sog'lomlashtirish maqsadida keluvchilar sonining kelajakda yanada oshishini ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan viloyatdagi Kattaqo'rg'on, Oqdaryo, Zarafshon, Nurobod hududlaridagi sog'lomlashtirish maskanlarida qo'shimcha qurilish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish, shuningdek, Omonqo'ton tog'-o'rmon xo'jaligi hamda Urgut shahridagi "Chorchinor" va "Ohalik" maskanlariga olib boruvchi yo'l va infratuzilmani shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

2025-yilning 10–12-may kunlari "Qo'rg'on dostonchilik maktabi va Ergash Jumanbulbul o'g'li merosi" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya hamda "Qo'shrabot navosi–2025" respublika baxshilar tanlovi tashkil etildi. Tadbirda taniqli baxshilar, Turkiya, Xitoy va Qozog'istondan kelgan san'atshunoslar, shuningdek, O'zbekistonda baxshichilik yo'nalishi rivojiga hissa qo'shib kelayotgan olimlar, shoir va yozuvchilar, madaniyat xodimlari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Festival doirasida hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmasi namoyish etilib, unda viloyatning shahar va tumanlaridan 31 nafar hunarmand o'z qo'l mehnati mahsulotlari bilan qatnashdi. Ushbu ko'rgazma hunarmandlarning mehnatini targ'ib qilishda hamda mahsulotlariga xaridor topishda muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, ko'rgazmada turkiyalik sayyohlar e'tiborini tortgan toshdan yasalgan egar 3 ming AQSh dollariga sotildi. Mazkur festivalning tashkil etilishi tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, Samarqand hunarmandchiligi va nomoddiy madaniy merosini asrab-avaylashga hamda turistlar oqimini oshirishga xizmat qiladi<sup>9</sup>.

Urgut tumanidagi Tersak qishlog'iga "Turizm qishlog'i" maqomi 2021-yil 22-iyun kuni berilgan. Qishloqning rasmiy ochilish marosimi 2025-yil 13-may kuni bo'lib o'tgan. Tersak qishlog'i Taxti Qoracha dovoni yoqasida, tog'lar orasida joylashgan mahalla hisoblanadi. To'rt qishloqdan iborat mazkur mahallaning go'zal tabiati va musaffo havosi kishini o'ziga rom etadi. Bugungi kunda ushbu hududda 32 ta mehmon uyi faoliyat yuritmoqda. Tumanda bunday turizm qishlog'ini tashkil etish orqali sayyohlar tog' turizmi yo'nalishida piyoda, ot va boshqa ulovlarda sayr qilishi, qishloqning tabiiy mahsulotlari va milliy taomlaridan bahramand bo'lishi, shuningdek, qishloqning etnik urf-odatlarini namoyishi hamda agroturizm yo'nalishida chorvachilik, bog'dorchilik va dehqonchilikning qadimiy uslublari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, 2025-yil 10–11-may kunlari Urgut tumanining Andak mahallasida ilk bor Xalqaro paraplan festivali bo'lib o'tdi. Samarqand viloyatida ilk marotaba tashkil etilgan mazkur festivalda Buyuk Britaniya, Fransiya, BAA, Rossiya, Belarus, Tojikiston, Ukraina kabi o'nga yaqin davlatdan 100 nafar paraplanchi ishtirok etdi. Shuningdek, 2025-yil 6–11-sentabr kunlari Urgut tumanining Sariqtepa, Chorchinor va Andak mahallalari hududidagi tog'larda yana bir xalqaro paraplan musobaqasi o'tkazilib, unda 10 ta davlatdan 50 nafari ziyod ishtirokchi qatnashdi. Ushbu xalqaro paraplan musobaqalari nafaqat ekstremal turizm turlarini ommalashtirish, balki Urgut tumanini ekstremal turizm markaziga aylantirish maqsadida ham tashkil etilgan bo'lib, mazkur tadbirlar Samarqand viloyatining turizm salohiyatini keng targ'ib etish yo'lidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi<sup>10</sup>.

8 Samarqanddagi moddiy madaniy meros ob'yektlari qanday asralmoqda? // <https://zarnews.uz/uz/post/samarqanddagi-moddiy-madaniy-meros-obektlari-qanday-asralmoqda>

9 <https://zarnews.uz> "Zarafshon" gazetasining 2025-yil 13-may kungi soni

10 <https://xs.uz> Urgutda xalqaro paraplan



Past Darg'om tumanida Nomsiztepa hududidan antik davrga oid sug'diyalar tangalari va sopol buyumlar topilgan. Tumanda jami 150 ta arxeologiya va arxitektura obyektlari ro'yxatga olingan bo'lib, ularning aksariyati tepaliklardan iborat va miloddan avvalgi I asrdan XVIII asrgacha bo'lgan davr bilan davrlashtirilgan. Biroq ko'plab tepaliklarga nom berilmagan, ayrim obyektlarning davri ham aniq belgilanmagan, shuningdek, hududda aniqlangan yangi topilmalar va arxeologik obyektlar hali madaniy meros ro'yxatiga kiritilmagan. Shu bois tumandagi arxeologik joylarni chuqur o'rganish, xalqning etnik hayotini tadqiq etish hamda ushbu hududda arxeologik muzey tashkil etish orqali yangi turistik marshrutlarni shakllantirish imkoniyati mavjud.

Samarqand viloyatining gastronomik turizm salohiyatini rivojlantirish sayyohlar uchun unutilmas tajribalar yaratishga xizmat qilishi mumkin. Xususan, palov tayyorlash bo'yicha master-klasslar tashkil etish, Samarqandning mashhur palovi va boshqa milliy taomlarni tayyorlash jarayonlarida sayyohlarning bevosita ishtirokini ta'minlash, shuningdek, sharob degustatsiyalarini tashkil etish orqali viloyatda ishlab chiqariladigan uzum sharoblari bilan tanishtirish hamda uzumzorlarga sayohatlar uyushtirish mumkin.

Turistik mahsulot tarkibidagi asosiy xizmatlardan turistlar sayohat davomida albatta foydalanadi va ular sayohatning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Sayohat jarayonida esa turistlarning xohish-istaklari, qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, turfirmalar tomonidan qo'shimcha xizmatlar ham taklif etilishi mumkin. Qo'shimcha xizmatlar turistik mahsulotning raqobatbardoshligi va jozibadorligini oshiradi hamda turistlarning yana qayta tashrif buyurishiga undaydi. Hozirgi kunda Samarqand viloyatida teatr tomoshalari, oshpaz ishtirokida milliy taomlar tayyorlash, ko'ngilochar xizmatlar va 3D texnologiyalar asosidagi xizmatlardan qo'shimcha xizmatlar sifatida foydalanilmoqda. Ushbu xizmatlar turistik firmalar va gid-tarjimonlar o'rtasida bevosita amalga oshiriladi. Qo'shimcha xizmatlar turistik mahsulot qiymatini oshirib, tur dasturining mazmundorligini ta'minlaydi.

Turistik mahsulotning to'liq shakllanishida tovarlar va suvenirlarning o'rni ham muhim ahamiyatga ega. Ular turistlarning sayohat davomida olgan taassurotlarini eslab qolishiga va safardan o'ziga xos xotira sifatida buyum olib ketishiga xizmat qiladi. Suvenirlar nafaqat esdalik buyumlari, balki muayyan hududning tarixi, madaniyati, urf-odatlar va hunarmandchilik maktablarini aks ettiruvchi moddiy qadriyat hisoblanadi. Shu sababli ular turistik mahsulotning ajralmas qismi bo'lib, turizm industriyasi uchun qo'shimcha daromad manbai sifatida ham katta ahamiyatga ega. Masalan, yog'och o'ymakorligi mahsulotlari, kulolchilik buyumlari, milliy naqshlar tushirilgan matolar, zargarlik buyumlari hamda milliy musiqa asboblarning kichik nusxalari turistlar orasida eng ommabop mahsulotlar hisoblanadi. Ayrim hududlar ma'lum bir yo'nalishga ixtisoslashib, o'z turizm brendini shakllantirgan va ushbu brendlash orqali turizm iqtisodiyotiga sezilarli hissa qo'shmoqda. Hozirgi vaqtda Samarqand viloyatida qadimiy texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan qog'oz mahsulotlaridan tayyorlangan noodatiy suvenirlar, ipak gilamlar, milliy liboslar, "Registon" tasvirlari va "Samarqand" yozuvi tushirilgan turli haykalchalar suvenir sifatida sotilmoqda. Ushbu mahsulotlarni takomillashtirish, ularning dizaynini yanada jozibador qilish hamda Samarqand brendini yaratish orqali turizm industriyasida mustahkam o'rin egallash mumkin.

Olib borilgan izlanishlar natijasida Samarqand viloyatida yangi turistik marshrutlarni yaratish va ularning xizmatlar ko'rsatish sohasidagi rolini oshirish imkoniyatlari mavjudligi aniqlangan. Viloyatdagi mavjud resurslardan samarali foydalanish, tumanlar turizm salohiyatiga alohida e'tibor qaratish hamda ular asosida yangi turistik mahsulotlarni ishlab chiqish ichki va xalqaro turizm uchun katta qiziqish uyg'otadi. Samarqand viloyati o'ziga xos resurslarga ega bo'lib, innovatsion yondashuvlar va xalqaro tendensiyalarga mos strategiyalar asosida raqobatbardosh turizm mahsulotlarini shakllantirish imkoniyatiga ega.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Turistik hududlar uchun yangi va jozibador turizm mahsulotlarini ishlab chiqishga doimiy e'tibor qaratish, shuningdek, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Turistik hududlar va ularga yaqin hududlar uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda transport, mehmonxona va ovqatlanirish sohasidagi xizmatlarni xalqaro standartlarga moslashtirish;
2. Samarqand viloyati tumanlarini turizm turlari bo'yicha ixtisoslashtirish;
3. Yaratilgan turistik mahsulotlarni iste'molchiga yetkazish maqsadida marketing tizimini takomillashtirish.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-7531559>
2. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. — 332 bet.
3. Samarqand viloyatida turizm va dam olishni rivojlantirilishi. 2024. — <https://samstat.uz>
4. Кусков А.С., Джаладян Ю.А. Основы туризма: учебник. — 4-е изд., перераб. — М.: КНОРУС, 2015. — 250 с.
5. Илина Е.Н. Туроперейтинг: организация деятельности: учебник. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Финансы и статистика, 2014. — 440 с.



6. Дурович А.П. Организация туризма. Учебное пособие. — СПб.: Питер, 2012. — 355 с.
7. <https://ojs.rmasav.com>
8. <https://zarnews.uz>
9. <https://xs.uz>
10. <https://zarnews.uz/uz/post/samarqanddagi-moddiy-madaniy-meros-obektlari-qanday-asralmoqda>
11. <https://gov.uz/uz/uzbektourism>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

### 1-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>